

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI  
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

AKADEMIK KENGASHNING 2-MAJLISI BAYONNOMASI

2024-yil 10-oktabr

Toshkent - 2024

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**  
**AKADEMIK KENGASHI MAJLISINING**  
**2-BAYONNOMASI**

Toshkent shahri

2024- yil 10-oktabr

**Qatnashdilar:**

A'zolar: A.Umarov (raislik qiluvchi), M.Abduraxmanova (Akademik kengash kotibi), O.Yusupdjanov, G.Ismailova, Sh.Abdullayev, A.Xaydarov, A.Turdimatov, U.Yakubxodjayev, M.Xamdamov, Sh.Arapov, L.Xodjayev, B.Salaxitdinov, O.Mannopova, U.Xasanov, E.Sultanova, G.Raimova, U.Sharipova, L.Tashpulatova, I.Yakubov, Sh.Masadikov, R.Yusufaliyeva, Y.Borisova, V.Mamatkasimova, X.Gafurova, N.Raimova, A.Rasulov, M.Baqoyev, N.Muminova, M.Abdullayeva, A.Abdullayev.

Doimiy taklif qilinganlar: U.Dustov, M.Sheraliyev, A.Nasirov, M.Siddikova, I.Mo'minov, Sh.Shakirova, Sh.Urinov, B.Xasanov, A.Xakimov, D.Normetova, F.Tashev.

**Qatnashmadilar**: a'zolar: S.Safoyev (xizmat safarida), I.Xamedov (sababli), I.Mavlanov(sababli), N.Sirajiddinov (sababli);

doimiy taklif qilinganlar: K.Dalimov(betob).

**KUN TARTIBI:**

Masala T/r	Mazmuni	Taqdimotchi va mas'ullar	Hujjat kodi
2-1	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik kengashining yillik ish rejasi va faoliyati reglamentini tasdiqlash	Akademik kengash kotibi <b>M.Abduraxmanova</b>	<b>A</b>
2-2	O'qishini ko'chirgan, kursdan kursga tushgan va tiklangan talabalarning akademik farq fanlarini hisoblash	Birinchi prorektor <b>A.Umarov</b>	<b>B</b>
2-3	2023/2024-o'quv yilida o'tkazilgan 3-kurs talabalarining malakaviy amaliyoti yakunlari to'g'risida	Karyera markazi boshlig'i <b>Z.Azizzanova</b>	<b>C</b>
2-4	Universitet ilmiy unvonlariga talabgorlar uchun maxsus imtihonini tashkil etish	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor <b>G.Ismailova</b>	<b>D</b>

2-5	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktorantlar va doktorantlar hamda mustaqil izlanuvchilar mavzularini tasdiqlash to'g'risida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor <b>G.Ismailova</b>	E
2-6	<p><b>Turli masalalar:</b></p> <p><b>1. Universitet o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya qilish to'g'risida</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Xalqaro munosabatlar fakulteti dekani <b>Arapov Sherzod Dehkanbayevichni</b> 23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqqa taraqqiyotining siyosiy muammolari ixtisosligi bo'yicha dotsentlik unvoniga tavsiya etish;</li> <li>- Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi dotsenti v.b. <b>Israilova Zarina Sadreddinovnani</b> 12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi ixtisosligi bo'yicha dotsentlik unvoniga tavsiya etish;</li> <li>- O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti v.b., f.f.n. <b>Aripova Aziza Xasanovnani</b> 10.00.02 – Filologiya ixtisosligi bo'yicha dotsentlik unvoniga tavsiya etish.</li> </ul> <p><b>2. Joriy yil uchun ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar dasturlarini tasdiqlash:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- "Sun'iy intellekt orqali raqamli transformatsiya: Barqaror va inklyuziv rivojlanish yo'lida" mavzusida innovatsion loyihani tasdiqlash;</li> <li>- "Welcome to Uzbekistan" elektron-tasviriy (imidj) portalini yaratish bo'yicha innovatsion loyiha mavzusini tasdiqlash.</li> <li>3. Ilmiy daraja ega bo'lmagan o'qituvchi va mutaxassislarga ma'ruza o'qishga ruxsat berish to'g'risida</li> </ul>	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor <b>G.Ismailova</b>	G

Akademik kengash kotibi M.Abduraxmanova – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining "Oliy o'quv yurtining Ilmiy kengashi

to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq Ilmiy kengash majlisini boshlashga yetarli kvorum bor ekanligini ma'lum qildi.

**Bildirilgan mulohazalar:**

Akademik kengash a'zolari majlisni boshlashni bir ovozdan ma'qulladilar.

**1-masala**

**ESHITILDI:** Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik kengashining yillik ish rejasi va faoliyati reglamentini tasdiqlash. Kengash kotibi M.Abduraxmanova yillik reja O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-iyuldagagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son qaroridagi vazifalar asosida, JIDU Akademik kengashi to'g'risidagi Nizomga asosan prorektorlar, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari bilan kelishilgan holda tuzilgani to'g'risida axborot berdi. Shu bilan birga Akademik kengash faoliyati reglamentining yangi tahriri muhokama qilindi. **(Hujjat A)**

**QAROR QILINDI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Oliy ta'lim muassasasining Ilmiy kengashi to'g'risida"gi namunaviy Nizomi hamda "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Akademik kengashi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tayyorlangan JIDU **Akademik kengashining yillik ish rejasi** loyihasi 2-1-1A-ilovaga muvofiq asos uchun qabul qilinsin.

2. Prorektorlar, fakultetlarning dekanlari, bo'lim boshliqlari, kafedra mudirlariga:

- JIDU Akademik kengashining Ish rejasiga kiritilgan masalar bo'yicha barcha ma'lumotlar/ hujjatlar reja asosida Akademik kengashga o'z vaqtida taqdim etilishi ta'minlansin.

- JIDU Akademik kengashining Ish rejasiga ish jarayonida muhokama qilinishi lozim bo'lgan boshqa muhim masalalar Kengash kun tartibiga kiritilib borilsin.

3. Akademik kengashi faoliyati reglamenti 2-1-2A-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati Akademik kengash raisi zimmasiga yuklatilsin.

## **2-masala**

### **ESHITILDI:**

O'qishini ko'chirgan, kursdan kursga tushgan va tiklangan talabalarning akademik farq fanlarini hisoblash to'g'risida. Mazkur masala yuzasidan Universitet birinchi prorektori **A.Umarov** so'zga chiqdi va quyidagilarni alohida ta'kidladi: 2022/2023 va 2023/2024-o'quv yilida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga o'qishini ko'chirgan talabalarda oldingi Registrar ofisi tomonidan akademik farq fanlarni hisoblashda yo'l qo'yilgan xatolik (akademik farq fanlarni noto'g'ri hisoblash) sababli talabalarda farq fanlar qayta topshirish 2022/2023 va 2023/2024-o'quv yillari davomida tashkillashtirib berilmagan.

Fanlar farqi 4 tadan ko'p bo'lgan holda, odatda talabaning o'qishini ko'chirish yoki qayta tiklash imkoniyati rad etiladi. Lekin oliv ta'lim muassasasi rektori alohida hollarda (masalan, talabaning yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlari, erishgan yutuqlari va boshqa sabablarga ko'ra) istisno tariqasida talabaga imkoniyat berishi mumkin. Bunda talabaga quyi kursga o'tish va faqat farq fanlarini o'zlashtirish imkoniyati berilishi, talabaga ma'lum muddat (masalan, bir semestr) ichida farq fanlarini mustaqil o'zlashtirish va topshirish uchun imkoniyat berilishi, JIDUda talaba faqat o'zlashtirmagan fanlarni (modullarni) qayta o'qish orqali farqlarni bartaraf etishi mumkinligi, har qanday holatda ham, bunday qaror JIDU rektori tomonidan alohida ko'rib chiqilishi va rasmiy buyruq bilan rasmiylashtirilishi, talabaga farq fanlarini topshirish uchun aniq muddat belgilanishi va ushbu muddat ichida farqlar topshirilmasa, talaba o'qishdan chetlashtirilishi mumkinligi izohlandi. **(Hujjat B)**

### **Bildirilgan mulohazalar:**

Akademik kengash a'zolari mazkur masalani ma'qulladilar va bir martalik hal qiluv qarori sifatida qabul qilishni qo'llab-quvvatladilar.

### **QAROR QILINDI:**

1. "2022/2023 va 2023/2024-o'quv yillarida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga o'qishini ko'chirgan talabalarda amaldagi o'quv reja bo'yicha akademik farq fanlarni hisoblashda oldingi Registrar ofisi xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan qo'pol xatolar sababli vujudga kelgan muammoli vaziyatni hal etish maqsadida mazkur talabalar uchun fanlar farqini qaytadan hisoblashda fanlar mazmuni bir xil bo'lib, ularning

kreditlari miqdori 4 (o'zlashtirgan) va 6 (farq fan) bo'lgan holatlarda mazkur fan krediti talaba tomonidan o'zlashtirilgan deb qabul qilinsin.

2. 2024/2025-o'quv yilida kursdan kursga tushgan va o'qishini tiklagan talabalar uchun amaldagi o'quv rejaga kiritilgan fanlar kreditlari yildan yilga o'zgarayotgani sababli vujudga kelayotgan farq fanlarni hisoblashda, talaba 4 kreditlik fanni o'zlashtirgan bo'lsa, lekin yangi o'quv rejasida farq fan krediti 6 bo'lgan holatlarda mazkur fan sillabusi tahlili asosida kreditlardagi farq (2 kredit)ni qo'shimcha darslar va nazorat o'tkazish orqali o'zlashtirsin, farq kreditlar bo'yicha o'qish (modulli)ni tashkillashlashtirish, hisoblash bo'yicha yo'riqnomada tayyorlansin hamda joriy o'quv yilidan amalda qo'llash choralari ko'rilsin.

3. Mazkur qaror ijrosining nazorati A.Umarovga yuklatilsin.

### **3-masala.**

#### **ESHITILDI:**

2023/2024-o'quv yilida o'tkazilgan 3-kurs talabalarining malakaviy amaliyoti yakunlari to'g'risida. Mazkur masala yuzasidan karyera markazi boshlig'i Z.Azizxanovaning hisoboti tinglandi. (**Hujjat C**).

#### Bildirilgan mulohazalar:

Mazkur masala yuzasidan so'zga chiqqanlar malakaviy amaliyot jarayonini tashkillashtirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'z takliflarini bildirdilar. Jumladan, A.Umarov malakaviy amaliyot yo'riqnomasini mukammal ishlab chiqish zarurligi, M.Baqoyev malakaviy amaliyot jarayonini raqamlashtirib, Moodle tizimida "Malakaviy amaliyot" kursini ochish kerakligi, E.Sultonova yangi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzishga ehtiyoj borligi to'g'risida ta'kidladilar.

#### **QAROR QILINDI:**

1. Universitetda 2023/2024-o'quv yilining 01-iyulidan 31-avgustigacha bakalavr bosqichi 3-kurs talabalarining 2024-yil 12-iyundagi 417-t-sonli "Malaka amaliyoti to'g'risida"gi buyrug'i asosida tashkil qilingan malaka amaliyoti natijalari bo'yicha Karyera markazi boshlig'i Z.Azizxanovaning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Malaka amaliyoti yuzasidan kamchiliklarni bartaraf etish uchun aniq chora-tadbirlar rejasiga 1 oy muddatda ishlab chiqilsin.

3. Moodle tizimida “Malakaviy amaliyot” sahifasi 15-noyabrga qadar ochilsin va ma’lumotlar to’liq kiritilsin.
4. Mazkur vazifa karyera markazi boshlig’I Z.Azizzanova yuqatilishin.

#### **4-masala.**

**ESHITILDI:** Universitet ilmiy unvonlariga talabgorlar uchun maxsus imtihonini tashkil etish to’g’risida. G.Ismailova Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo’nalishlari” fanidan maxsus imtihoni tashkil etish zaruriyati mavjudligini ta’kidlab, ushbu imtihonni tashkil etishdan maqsad – ijtimoiy-gumanitar fanlari sohalarida ilmiy unvonlarga talabgorlarning fikrlash qobiliyati, mustaqillik mafkurasini idrok eta olish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g’oyaviy-mafkuraviy jarayonlar bo'yicha nazariy tayyorgarligi, yuksak ma'naviyati va ma'rifatlilagini baholashdan iboratligini aytib o'tdi. Shuningdek, maxsus imtihon komissiyasi tarkibi quyidagi tarkibda taklif qilindi (**Hujjat D**):

#### Bildirilgan mulohazalar:

Komissiya tarkibi Akademik kengash a’zolari tomonidan ma’qullandi.

#### **QAROR QILINDI:**

1. Universitetdagi ixtisosliklar bo'yicha malaka imtihonlarini tashkil etish to’g’risida ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo’nalishlari” fanidan maxsus imtihoni tashkil etilishi ma’qullansin.
3. Universitet ilmiy unvonlariga talabgorlar uchun maxsus imtihoni reglamenti ishlab chiqilsin.
4. “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo’nalishlari” fanidan maxsus imtihon Dasturi (2-4-1D-ilova) va komissa tarkibi (2-4-2D-ilova) bo'yicha

ma'lumot va taqdimnoma tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKga kiritilsin.

5. JIDUDA "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish hamda ijtimoiy taraqqiyotning ilmiy asoslari va amaliy yo'nalishlari" fanidan maxsus imtihoning tashkiliy masalalarni amalga oshirish va nazorat qilish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailovaga yuklatilsin.

## 5-masala.

**ESHITILDI:** Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktorantlar va doktorantlar hamda mustaqil izlanuvchilar mavzularini tasdiqlash to'g'risida G.Ismailova axborot berdi. (**Hujjat E**)

### Bildirilgan mulohazalar:

Mavzular Kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi.

### **QAROR QILINDI:**

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktorantlar va doktorantlar hamda mustaqil izlanuvchilar mavzulari to'g'risidagi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailova axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Universiteti tayanch doktorantlar va doktorantlar hamda mustaqil izlanuvchilar mavzulari 2-5-1E, 2-5-2E, 2-5-3E -ilovalariga asosan tasdiqlansin.
3. Universiteti tayanch doktorantlar va doktorantlar hamda mustaqil izlanuvchilar dissertatsiya ustida ishlash va o'z vaqtida himoya qilish mas'uliyati biriktirilgan kafedralar mudirlari va ilmiy rahbarlariga yuklatilsin.
4. Universiteti tayanch doktorantlar va doktorantlar hamda mustaqil izlanuvchilar dissertatsiya mavzulari tegishli buyruq bilan rasmiylashtirilsin (Mas'ul: Fan va innovatsiyalar bo'lim boshlig'i M.Siddikova).
5. Qaror ijrosi ustidan umumiyl nazorati Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori G.Ismailovaga yuklatilsin.

## 6-Turli masalalar

**6.1. ESHITILDI:** Universitet o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya qilish to'g'risida.

- Xalqaro munosabatlar fakulteti dekani **Arapov Sherzod Dehkanbayevichni** 23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintqa taraqqiyotining siyosiy muammolari ixtisosligi bo'yicha dotsentlik unvoniga tavsiya etish;
- Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi dotsenti v.b. **Israilova Zarina Sadriddinovnani** 12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi ixtisosligi bo'yicha dotsentlik unvoniga tavsiya etish;
- O'zbek va rus tillari kafedrasi dotsenti v.b., f.f.n. **Aripova Aziza Xasanovnani** 10.00.02 – Filologiya ixtisosligi bo'yicha dotsentlik unvoniga tavsiya etish tog'risida.

Dotsent ilmiy unvonini berish uchun saylangan hisob komissiyasi (G.Raimova, V.Mamamtkasimova, M.Abdullayeva) bayonnomasi o'qib eshittirildi, ovoz berish natijalari e'lon qilindi. **(HuJJAT G)**

#### **QAROR QILINDI:**

- 1.1. Ilmiy kotib M.Abduraxmanovaning dotsent unvoniga talabgor **Arapov Sherzod Dehkanbayevichning** pedagogik va ilmiy faoliyati haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
- 1.2. Dotsent unvoniga talabgor **Arapov Sherzod Dehkanbayevichning** ilmiy faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi Rayosatining 2016-yil 28-apreldagi 224/8-son Qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga to'liq javob beradi deb hisoblansin.
- 1.3. **Arapov Sherzod Dehkanbayevichni** dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risidagi fakultet yig'ilishi tavsiyasi ma'qullansin.
- 1.4. **Arapov Sherzod Dehkanbayevichni** dotsent ilmiy unvoniga taqdim etish yuzasidan yashirin berilgan ovozlarni sanash uchun saylangan Sanoq komissiyasi bayonnomasi ma'qullansin.
- 1.5. Dotsent ilmiy unvoniga da'vegar **Arapov Sherzod Dehkanbayevich** nomzodi tasdiqlansin va dotsentlik unvoni berilsin.
- 1.6. Universitet Ilmiy kotibi M.Abduraxmanovaga:
  - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq **Arapov Sherzod Dehkanbayevichning** hujjatlari 10 kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tizimiga yuklanishi vazifasi topshirilsin. Muddat: 2024-yil 20-oktabr.

2.1. Ilmiy kotib M.Abduraxmanovning dotsent unvoniga talabgor **Israilova Zarina Sadriddinovnaning** pedagogik va ilmiy faoliyati haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.2. Dotsent unvoniga talabgor **Israilova Zarina Sadriddinovnaning** ilmiy faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi Rayosatining 2016 yil 28 apreldagi 224/8-son Qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga to'liq javob beradi deb hisoblansin.

2.3. **Israilova Zarina Sadriddinovnani** dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risidagi kafedra yig'ilishi tavsiyasi ma'qullansin.

2.4. **Israilova Zarina Sadriddinovnani** dotsent ilmiy unvoniga taqdim etish yuzasidan yashirin berilgan ovozlarni sanash uchun saylangan Sanoq komissiyasi Bayonnomasi ma'qullansin.

2.5. Dotsent ilmiy unvoniga da'vogar **Israilova Zarina Sadriddinovna** nomzodi tasdiqlansin va dotsentlik unvoni berilsin.

2.6. Universitet Ilmiy kotibi M.Abduraxmanovaga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq **Israilova Zarina Sadriddinovnaning** hujjatlari 10 kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tizimiga yuklanishi vazifasi topshirilsin. Muddat: 2024-yil 20-oktabr.

3.1. Ilmiy kotib M.Abduraxmanovning dotsent unvoniga talabgor **Aripova Aziza Xasanovnaning** pedagogik va ilmiy faoliyati haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.2. Dotsent unvoniga talabgor **Aripova Aziza Xasanovnaning** ilmiy faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi Rayosatining 2016 yil 28 apreldagi 224/8-son Qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga to'liq javob beradi deb hisoblansin.

3.3. **Aripova Aziza Xasanovnani** dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risidagi kafedra yig'ilishi tavsiyasi ma'qullansin.

3.4. **Aripova Aziza Xasanovnani** dotsent ilmiy unvoniga taqdim etish yuzasidan yashirin berilgan ovozlarni sanash uchun saylangan Sanoq komissiyasi Bayonnomasi ma'qullansin.

3.5. dotsent ilmiy unvoniga da'vogar **Aripova Aziza Xasanovna** nomzodi tasdiqlansin va dotsentlik unvoni berilsin.

3.6. Universitet Ilmiy kotibi M.Abduraxmanovaga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq **Aripova Aziza Xasanovnaning** hujjatlari 10 kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tizimiga yuklanishi vazifasi topshirilsin. Muddat: 2024-yil 20-oktabr.

**6-2. ESHITILDI:** O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajarilgan fundamental hamda amaliy loyihalar asosida bajariladigan amaliy tadqiqot hamda innovatsion loyihalar tanloviga tadqiqotlar mavzusini tasdiqlash to'g'risida L.Tashpulatova va V. Xan axboroti tinglandi.

**Bildirilgan mulohazalar:**

Loyiha mavzulari Kengash a'zolari tomonidan ma'qullandi. **(Hujjat G)**

**QAROR QILINDI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajarilgan fundamental hamda amaliy loyihalar asosida bajariladigan amaliy tadqiqot hamda innovatsion loyihalar tanloviga Xalqaro iqtisodiyot kafedrasi tomonidan taqdim etilgan fundamental tadqiqotning "**Sun'iy intellekt asosida transformatsiya barqaror va inklyuziv rivojlanish drayveri sifatida: ilg'or xorijiy tajribani O'zbekistonda joriy etish imkoniyatlari**" hamda "**Welcome to Uzbekistan**" elektron-tasviriy (imidj) portalini yaratish bo'yicha innovatsion loyiha mavzulari tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajarilgan fundamental hamda amaliy loyihalar asosida bajariladigan amaliy tadqiqot hamda innovatsion loyihalar tanloviga taqdim etilgan loyihalar tanlov talablariga qat'iy rioya qilinganligi va o'z vaqtida topshirilganligini Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G.S.Ismailova tomonidan nazoratga olinsin.

3. Ilmiy loyiha bo'yicha barcha kerakli hujjatlarni tayyorlash va Davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasi ([loyiha.ilmiy.uz](http://loyiha.ilmiy.uz)) orqali ro'yxatdan o'tkazish va topshirish Xalqaro iqtisodiyot kafedrasi mudiri L.M.Tashpulatovaga hamda V.S.Xanga yuklansin.

**6-3. ESHITILDI:** Ilmiy daraja ega bo'limgan o'qituvchi va mutaxassislarga ma'ruba o'qishga ruxsat berish to'g'risida. Kun tartibidagi masala yuzasidan universitetning O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektori A.Umarov so'zga chiqib, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida 2024-2025-o'quv yilida o'quv yuklamalarni sifatli bajarilishini ta'minlash zarurati yuzasidan fanlar bo'yicha ma'ruzalar o'qishga jalb qilingan, lekin ilmiy darajaga ega bo'limgan o'qituvchi va mutaxassislar haqida batafsil ma'lumot berdi.

Akademik kengash a'zolari mazkur masalani ma'qulladilar. (**Hujjat G**)

**QAROR QILADI:**

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti O'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor A.Umarovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Ilmiy daraja ega bo'limgan, kafedralarda uzoq yllardan buyon ishlab kelayotgan tajribali o'qituvchilarga hamda o'rindoshlik asosida dars jarayoniga jalb qilingan mutaxassislarga 2-6-G ilovaga muvofiq fanlardan ma'ruzalar o'qishga ruxsat berilsin.
3. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazorat o'quv ishlari bo'yicha birinchi prorektor A.Umarov zimmasiga yuklansin.

**Akademik kengash majlisiga  
raislik qiluvchi**



**A.A. Umarov**

**Akademik kengash kotibi**



**M.D. Abduraxmanova**